INGLIZ TILINI O‘QITISHDA DIFFERENSIAL YONASHUV ASOSIDA TALABALARNING TIL KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Xaydarova Sevara Sobirjon qizi
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.22872241

Anotatsiya. Mazkur tezisda oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish jarayonida differensial yondashuvdan foydalanishning metodik imkoniyatlari haqida yoritib berilgan. Talabalarning tilni o‘zlashtirish darajasi, individual ehtiyojlari, qiziqishlari va ta’limiy imkoniyatlaridagi farqlarini hisobga olish ingliz tili ta’limining samaradorligini oshuruvchi muhim metodik omil sifatida qaraladi. Differensial yondashuv asosida topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko‘ra tabaqalashtirish, individual va guruhli ishlarni rivojlantirish, kommunikativ mashqlarni talabaning tayyorgarlik darajasiga moslashtirish hamda muntazam diagnostic baholash orqali til kompetensiyasini muntazam rivojlantirish imkoniyatlarini tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: differensial yondashuv, tabaqalashtirilgan topshiriqlar, til kompetensiyasi, individual ta’lim, kommunikativ kompetensiya, metodika.

Аннотация. В данной работе рассматриваются методологические возможности применения дифференцированного подхода в процессе обучения английскому языку в высших учебных заведениях. Учет различий в уровне усвоения языка, индивидуальных потребностей, интересов и образовательных возможностей студентов рассматривается как важный методологический фактор, повышающий эффективность преподавания английского языка. На основе дифференцированного подхода анализируются возможности классификации заданий по уровню сложности, разработки индивидуальной и групповой работы, адаптации коммуникативных упражнений к уровню подготовки студента и систематического развития языковой компетенции посредством регулярной диагностической оценки.

Ключевые слова: дифференцированный подход, дифференцированные задачи, языковая компетенция, индивидуальное обучение, коммуникативная компетенция, методология.

Abstract. This thesis discusses the methodological possibilities of using a differential approach in the process of teaching English in higher education institutions. Taking into account the differences in the level of language acquisition, individual needs, interests and educational opportunities of students is considered an important methodological factor that increases the effectiveness of English language teaching. Based on the differential approach, the possibilities of classifying tasks according to the level of complexity, developing individual and group work, adapting communicative exercises to the student's level of preparation, and systematically developing language competence through regular diagnostic assessment are analyzed.

Keywords: differentiated approach, differentiated tasks, language competence, individual learning, communicative competence, methodology.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Kirish.

Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida ingliz tilini o‘qitishdan asosiy maqsad talabaning nafaqat Grammatik qoidalarni bilishi yoki lug‘at boyligini oshirishida emas, balki ushbu bilimlarni kommunikativ vaziyatlarda samarali qo‘llay olish kompetensiyasini shakllantirishdan iborat. Shu bilan birga, bir guruh tarkibidagi talabalar ingliz tilini o‘zlashtirish darajasi, bilim va ko‘nikmalari, o‘rganish sur’ati hamda individual ta’limiy ehtiyojlari jihatidan bir-biridan sezilarli darajada farqlanadi. Shu bois, differensial yondashuv ingliz tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv ta’lim mazmuni, topshiriqlar, metodlar va baholash mezonlarini talabalarning individual xususiyatlari va tayyorgarlik darajasiga moslashtirishni nazarda tutadi.

Asosiy qism

Differensial yondashuvning metodik mohiyati shundaki, ushbu metod ta’lim jarayonida talabalar o‘rtasidagi mavjud farqlar aniqlaniladi va ushbu farqlarga mos ravishda o‘qitish strategiyalari ishlab chiqiladi. Bunda talabalar shunchaki “kuchli” va “kuchsiz” guruhlarga ajratilmaydi, balki har bir talabaning mavjud kompetensiyasini aniqlash va uning keying rivojlanish bosqichini belgilash muhim hisoblanadi. Ingliz tili mashg‘ulotlarida differensial yondashuvni amalga oshirshning bir nechta bosqichlari mavjud. Birinchi bosqichda talabalarning boshlang‘ich bilim va ko‘nikmalari diagnostic topshiriqlar orqali tahlil qilinadi. Bunda grammatika, so‘z boyligi, tinglab tushunish (listening), yozma (writing), o‘qib tushunish (reading) va og‘zaki nutq (speaking) ko‘nikmalari kompleks ravishda baholanadi. Ikkinchi bosqichda olingan diagnostik natijalar asosida o‘quv topshiriqlari tabaqalashtiriladi. Masalan til ko‘nikmasi past bo‘lgan talabalar uchun tayanch so‘zlar, namunaviy gaplar va qisqa kommunikativ mashqlar beriladi va til ko‘nikmasi oshirib boriladi. O‘rta darajadagi talabalar uchun mustaqil firklashni talab qiladigan dialog, munozara va muammoli vaziyatlar kabi topshiriqlar, yuqori darajadagi talabalar uchun esa murakkab kommunikativ vazifalar, tahliliy va ijodiy topshiriqlar taklif etiladi. Ushbu tashkil etilgan metodika talabaning o‘z imkoniyatlariga mos vazifa bajarishiga va asta-sekin yuqori murakkablik darajasiga ko ‘tarilishiga sharoit yaratadi. Natijada ta’lim jarayonida “barcha talabaga bir xil topshiriq” tamoyilidan “har bir talabaga rivojlanishiga mos topshiriq” tamoyiliga o‘tish imkoniyati yuzaga keladi.

Differensial yondashuv ayniqsa kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Masalan, speaking mashg‘ulotida boshlang‘ich darajadagi talabaga tayyor savollar asosida suhbat tashkil etilsa, yuqori darajadagi talabaga muammoli vaziyatni mustaqil tahlil qilish va o‘z nuqtai nazarini himoya qilish vazifasi berilishi mumkin. Writing mashg‘ulotlarida ham talabalar darajasiga mos ravishda gaplarni to‘ldirish, qisqa matn yaratish, fikrni asoslash yoki akademik esse yozish kabi turli murakkablikdagi topshiriqlardan foydalanish mumkin. Mazkur yondashuvda o‘qituvchining roli ham o‘zgaradi. O‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki talabaning individual rivojlanish yo‘nalishini belgilovchi va ta’lim jarayonini boshqaruvchi metodik tashkilotchi sifatida faoliyat yuritadi. Buning uchun o‘qituvchi muntazam diagnostika, kuzatuv, individual fikr-mulohaza va formativ baholashdan foydalanishi lozim. Differensial yondashuvning yana bir muhim jihati shudaki, ushbu yondashuvda talabalarni o‘quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishdir. Talaba o‘zining kuchli va rivojlantirilishi zarur bo‘lgan jihatlarini anglagan holda individual ta’lim maqsadlarini belgilashi mumkin. Bu esa uning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga va o‘z-o‘zini baholash kompetensiyasini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga differensial yondashuvni zamonaviy pedagogik metodlar bilan integratsiya qilish uning samaradorligini yanada oshiradi. Xususan, kommunikativ metod, muammoli ta’lim, loyiha metodi, juftlik va kichik guruhlarda ishlash, case-study hamda rolli o‘yinlardan foydalanish orqali turli darajadagi talabalar uchun mos ta’limiy vaziyatlarni yaratish mumkin.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilini o‘qitishda differensial yondashuv talabalarning individual imkoniyatlari va ta’limiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda o‘quv jarayonini tashkil etish imkonini beruvchi samarali metodik yondashuvdir. Mazkur yondashuv asosida diagnostika, tabaqalashtirilgan topshiriqlar, individual ta’lim strategiyalari, kommunikativ mashqlar va formativ baholashni o‘zaro bog‘lash talabalarning til kompetensiyasini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Differensial yondashuvning asosiy metodik afzalligi shundaki, ushbu metod talabalarni yagona mezon asosida baholashdan ko‘ra har bir talabaning mavjud darajasidan kelib chiqib rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan metodik qo‘llanma hisoblanadi. Shu sababli oliy ta’lim sifatini oshirish va talabalarning kommunikativ faoliyatga tayyorgarligini kuchaytirishning muhim sharti sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov J. J. **Chet tilini o‘qitish metodikasi.** – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
2. Hoshimov O‘., Yoqubov I. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Sharq,
3. Saydaliyev S. Chet tilini o‘qitish metodikasidan ocherklar. – Namangan: NamDU.
4. Nurmonov A., Mahmudov N. O‘zbek tilshunosligi va til ta’limi masalalari.- Toshkent: Fan,
5. Axmedova M. Pedagogika texnologiyalar va pedagogik mahorat.- Toshkent.
6. Richards J. C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
7. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. Pearson Education.
8. Tomlinson C. A. The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners. ASCD.
9. Щукин А. Н. Обучение иностранным языкам: Теория и практика. – Москва: Филоматис
10. Пассив Е. И. Основы Коммуникативной методики обучения иноязычному общению. – Москва: Русский язык

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.